

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT RIVOJIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Suvankulov Baxtiyor Mamarasulovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maolada Axborotlashuv davri, internetning paydo bo'lishi va uning imkoniyatlari, jamiyatning axborotlashuv davrga o'tish bosqichida yuzaga kelgan salbiy va ijobiy omillar va axborotlashuv jarayonini jamiyatdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga jiddiy ta'siri tahlil qilingan bo'lib unda axborot davri mafkurasi haqida turlicha qarash va nazariyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Axborotlashuv, internet, uchinchi to'lqin, infosfera, axborot iste'moli, superindustrial, aloqa jamiyati.

XX asrning oxirgi choragida insoniyat taraqqiyotida yangi davr boshlanib, insoniyat o'z rivojlanishning yangi pog'onasiga ko'tarildi. Inson ongi, qarashlari, ijtimoiy muhiti va jamiyatning ma'naviyati, madaniyati, turmush tarzi yuksaldi. Olimlar bu o'zgarishlarning mohiyati va tub zaminini anglashga intildilar va bunga munosib nom qidira boshladilar. Olimlar "kosmos asri", "elektron davr", "global qishloq" "postzamonaviy jamiyat", "etuk jamiyat", "ideal jamiyat" kabi nomlar bilan atay boshlagan davrda barchasini umumlashtirib "axborotlashgan jamiyat" degan nom bilan umumlashtirildi.

Axborotlashuv davrida globallashuv qanchalik yuqori cho'qqisiga chiqqaniga bugungi kunda millionlab yoshlarning internetdan foydalanishga o'tganligi va o'z kasbining ustalarini internet tarmog'i orqali mablag' ishlab topayotganidan ham anglash mumkin. Shunday chigal va murakkab sharoitda biz uchun galdagi eng muhim vazifalardan biri – yosh avlodning ongi hamda qalbini yod g'oyalardan, mafkuraviy tahdidlardan asrab-avaylashdir.

Metodlar bo'limi. Jamiyatning bugungi rivojlanish bosqichiga ko'tarilishi albatta o'z o'zidan sodir bo'lmadi, bir necha murakkab tarixiy davrlarni bosib o'tishi bilan buungi rivojlanish bosqichiga erishdi deb ayta olamiz. Olimlarimiz tomonidan bu alohida bosqichlarga bo'lib o'rganilgan bo'lib, insoniyat tarixining uchta bosqichi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

axborotlashgan jamiyat bosqichiga o'tishiga olib kelganligi haqida qarashlar mavjud:

1-bosqich: agrar davr – ibtidoiy davrdan 18-asrning ohiri, asosiy boylik yer.

2-bosqich: industrial davr – 18-asrning ohiridan 20-asrning o'rtalarigacha, asosiy boylik industrial jihozlar

3-bosqich: axborot davri – 20-asrning o'rtalaridan boshlab, asosiy boylik axborot

Axborotlashgan jamiyat-kishilik jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanayotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot hamda informatikadan oqilona foydalanishga asoslangan sifatli holatini tavsiflovchi tushuncha.

Axborotlashgan jamiyat fenomenining izohi D.Bell, I.Masuda, A.Toftler, M. Kastels, P.Draker, J.Gelbrejt kabi olimlarning asarlarida batafsil bayon etilgan. «Axborotlashgan jamiyat» atamasi dastlab Yaponiyada vujudga kelgan. Yapon faylasuf olimi Y.Xayashi 1969 yilda Yaponiya hukumatiga "Yaponiya axborotlashgan jamiyat bardamligi siyosatiga chizgilar", 1971 yili "Axborotlashgan jamiyat rejasi" kabi tadqiqotlarni taqdim etdi. 1971 yildan boshlab mazkur tushuncha ilmiy jamoatchilik tomonidan keng qo'llanila boshladi. Demak, axborotlashgan jamiyat tushunchasini birinchi bo'lib fanga Tokio texnologik universitetining professori Y.Xayashi kiritgan. Uning fikricha, moddiy mahsulot emas, axborotlashuv mahsuloti jamiyatning shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi kuchiga aylanadi. Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni bir-biri bilan bog'liq bo'lgan uch qismdan tarkib topadi:

1. Mediatizatsiya (lot.mediatius - vositachi) - axborot to'plash, saqlash va tarqatish vositalarini takomillashtirish jarayoni;

2. Kompyuterlashtirish - axborot izlash va unga ishlov berish vositalarini takomillashtirish jarayoni;

3. Intellektualizatsiya - axborot yaratish va uni idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, ya'ni jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, shu jumladan, sun'iy intellektdan foydalanish jarayoni.

Natijalar bo'limi. Amerikalik faylasuf Elvin Toftler "Uchinchi to'lqin" asarida "Tez kunlarda tarix sahnasiga yangi hokimiyat ko'tariladi. Kuch, zo'ravonlik, boylik, pulga asoslangan boshqaruv intihosiga yetib, uning o'rini bilim va axborotga asoslangan hokimiyat egallaydi. Yangi hokimiyatda aql ustuvorlik qilib,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

u bilim, axborot va insonda shakllangan fundamental qadriyatlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi", deb yozgan edi. Bu borada olim haq edi. Axborotga asoslangan hokimiyat kirib kelganligini Internet oqimi orqali kirib kelayotgan axborotlardan va uning imkoniyatlaridan ham sezishimiz mumkin. Lekin, shu o'rinda yana bir masala olimlarni o'ylantirib kelmoqda. BMT tadqiqotlariga ko'ra, hozir sayyoramizning teng yarim aholisi Internetdan foydalanish imkoniga ega. Ayni chog'da xalqaro tarmoqdan foydalanuvchilarning deyarli to'qson foizi rivojlangan dunyoda istiqomat qiladi. Ishlab chiqilayotgan axborotlarning deyarli ko'p qismi ham aynan o'sha rivojlangan mamlakatlar hisobiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa jahonning qolgan aholisi ana shu kichik doira tarqatayotgan axborot ta'sirida hayot kechiradi demakdir. E.Tofler Axborotlashuv davriga xos bo'lgan hayotning barcha jabhalarida aks etuvchi standartlashtirish, markazlashish xususiyatlarini bashorat qilgan edi. Bugungi kunda xatto sanoat soxasida xam bu ko'zga tashlanmoqda. Ishlab chiqarilayotgan oziq ovqat va noozoqaviy mahsulotlar deysizmi barchasi millionlab ishlab chiqailmoqda va ayni damda butun dunyo bozorini egallashga xarakat qilmoqda. Bu esa butun dunyo xalqlarining turmush tarzi bir xilda bo'lishi bilan izohlanadi. Eng ayanchlisi hali oldinda albatta, dunyo bo'yicha yagona mafkura bo'lishi – zamonaviy axborot texnologiyalari hukmronligi va bundan foydalanib ommaviy axborot vositalarining millionlab odamlarning ongini egallovchi bir turdagi axborotlarni ishlab chiqarayotga. Bu kelajakda axborotlarning yanada standartashishiga olib kelsa ikkinchi tomondan xalqlarning milliy mafkurasiga katta putur yetkazib milliy chegaralarning yuvilishiga olib keladi. Standartlashtirish prinsipi bugun yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Axborot istemolchilari uchun bir turdagi reklama va yangiliklarni ko'radigan va eshitadigan axboriy maydon yaratildi. Bunga misol tarzida axorot maydonida juda ko'p tarqalgan "Boy bo'lishning 10 siri", "Muofaqiyat va boylik sirlari" kabi kontentlarning ko'lami oshganligi, axborot istemolchilarining esa bu kontentlarni doimiy ko'rishi va tinglashi oqibatida inson dunyoqarashida faqat boylikga nisbatan xirsning kuchayshiga olib keladi. Insonlarda mehr muhabbat, insoniylik va halollik kabi tuyg'ular ikkinchi darajali bo'lib qoldi. Bundanda ayanchlirog'i nternet tarmog'i orqali pornografiya, birinchi navbatda, ijtimoiy axloqni kamsituvchi, jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlarini buzuvchi behayo ma'lumotlarning tarqalishi shaxs ruhiyati uchun jiddiy xavf tug'diradi. Bunday ma'lumotlarga ega bo'lgan serverlarga ko'pincha bolalar va



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

o'smirlar tashrif buyurishadi. Yosharning bunday bunday servirlarga murojat etishi o'zining bilim olish va o'qib o'rganish kabi maqsadlaridan chalg'ishiga olib keladi. Bu axborotlashuv davrining salbiy jihati bo'lsa, ijobiy tomonlari xam keng ko'lamaga egadir. Elvin Tofflarning yozishicha insoniyat tarixda ikkita tarihiy davrni bosib o'tganini, ya'ni o'zgarishlarning ikki ulkan to'lqinini boshidan kechirganligini aytadi. O'zgarishlarning birinchi to'lqini – qishloq xo'jaligi inqilobi bo'ldi. U ming yil umr ko'rganini, ikkinchi to'lqin esa – sanoat sivilizatsiyasi bo'lib, atigi uch yuz yil hukmronlik qilganini aytib o'tadi. Elvin Tofflarning kelajakda texnikaviy taraqqiyot yanada kuchayishini bashorat qiladi va natijada superindustrial jamiyat shakllanishini ta'kidlaydi. . Insoniyat boshidan yana bir o'zgarishlar to'foni, uchinchi to'lqin – (yangi sivilizatsiya) superindustrial jamiyatni kechirishini ham aytadi . Toffler uchinchi to'lqinni avval Qo'shma Shtatlarda yuz berganini, o'sha o'n yillikda birinchi marta “ok yoqaliklar” soni (ya'ni xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari) “ko'k yoqaliklar” (qora mehnat bilan shug'ullanuvchilar) sonidan ortib ketganligini ham aytadi. Keyinchalik bu to'lqin har xil muddatlarda boshqa mamlakatlarga (jumladan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvesiya, Germaniya va Yaponiyaga) ham yetib bordi. Biroq tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, mingab ishchilarni qamrab olgan zavod va fabrikalarda endi 50-100 nafar ishchi bilan ham ish unimdorligini oshirish imkonining mavjudligi qulay mehnat sharoitlarining yaratilganligi bir tarafdin ijobiy holat bo'lsa ikkinchi tomondan bu holat mehnat bozorida ishsizlar sonining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Tofflar ikkinchi to'lqin deb atagan jarayon hali o'z kuchini uzil-kesil yo'qotib bo'lgani yo'q. Biroq, axboriy jamiyat kirib kela boshladi. Ayniqsa, internetning tobora ommaviylashishi uning kirib kelishini tezlashtirmoqda. Qay bir davlat bu jamiyat tuzumiga qanchalik chuqur kirib borgan bo'lsa, demak, uning shunchalik rivojlanganlik belgisini bildiradi.

Munozara bo'limi. Bizga ma'lum ahborotlashuv davriga turli mamlakatlar turli darlarda o'tganliklari bilan farqlandi, yani ayrim davlatlar oldinroq ba'zilar esa keyinroq. Ayni damda bunday farqlar o'rtada tafovvutlarga sabab bo'ladi. Bu tafovvutlar salbiy oqibatlariga sabab bo'ladi. Axborotlashuv davrini oldinroq boshdan kechirgan davlatlar o'zining axborot maydonini mustahkamlab oladi va kuchsiz davlartlarni o'z ta'sir doirasiga olishga harakat qiladi. Axborot maydoni orqali ularga ma'naviy va mafkuraviy taxdidlar qiladi. Bejizga olimlar "Kimki



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

haqiqiy axborotga ega bo'lsa, u dunyoga hukmronlik qiladi" degan mashhur naqlni aytishmagan. Zero birinchi prezidentimiz I.A Karimov aytganlaridek «biz ba'zan G'arb madaniyati to'xtovsiz kirib kelayotgani haqida taassuf bilan gapiramiz. Bu shunday kuchli oqimki, unga qarshi chiqish juda mushkul. Buning faqat bitta yo'li bor. U ham bo'lsa, Internetga o'zimizga mos bo'lgan ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritishdan iborat» Hamma gap, mazkur muhim resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishida.

Axborotlashuv davri bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. «Yumshoq erotika»dan tortib «ochiq pornografiya»gacha bo'lgan hodisalar bilan bog'liq muammolar ana shular jumlasidandir. Bunday holatlarning oldini to'la-to'kis olib bo'lmaydi. Zero, axborot tarmoqlarining uzilishlarsiz ishlashi uning muhim sifatii belgisi hisoblanadi va bu jarayon doimiy takomillashuvni boshdan kechirmoqda. Demak, yuqoridagi kabi «muammolar» yo'liga qanchalik to'siq qo'yilmasin doimo ularni «aylanib» o'tish imkoniyati mavjud bo'ladi. Shunday ekan jamiyat a'zolarida axborotlarni eng kerakli va foydalisini saralash ko'nikmasini rivojlantirish va bu ko'nikmani bolalikdan inson ongig singdirish kerak bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. H. Rajabov Axborotlashgan jamiyatg o'tish omillari: "Tafakkur" jurnali, 2019 yil 3-son
2. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild.- T., O'zbekiston. 2005. – B. 304
3. Masuda Y. Managing in the information Society: Releasing synergy Japanese style. Oxford, 1990. R. 44.
4. Zinovyeva N.B. Informasionnaya kultura lichnosti: Vvedeniye v kurs / pod red. I.I. Gorlovoy. – Krasnodar, – 135 s.
5. Karimova G.A. O'zbekistonda axborotlashgan jamiyat shakllanishining milliy-axloqiy jihatlari Fan doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2020. – B.5.
6. Абдухоликова Н. А. //Socio-educational factors in protecting young people from internet addiction in an informe// European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA) № 3 2022 110-112–Б. № 3

